# 8-bor o`tkazilayotgan Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivali

# The 8th International High School Students'Photo Festival Exchange (HIGASHIKAWA Youth Fest.)

【Bosh tashkilotchi】Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivali ijroiya qo'mitasi

＜Ta`sis tashkilotchilar＞

Higashikava shahri, Higashikava turizm assotsiatsiyasi, Higashikava Savdo palatasi, Higashikava ta'lim kengashi / Kita Kogakuen maktabi

Higashikava jamoat targ`ibot MCHJ, Kitano Megumi MCHJ, Toko Hire Aksiyadorlik jamiyati

【Qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar】Yaponiyaning tashqi ishlar vazirligi, Xalqaro aloqalar bo'yicha mahalliy hokimiyatlar kengashi, Yaponiya xususiy eshittirish ta'lim assotsiatsiyasi, Koreya Respublikasining Sapporodagi Bosh konsullik elchixonasi, Yaponiyadagi Tailand qirolligi elchixonasi, Vetnam Sotsialistik Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, O'zbekiston Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Indoneziya Respublikasi elchixonasi, Kanadaning Yaponiyadagi elchixonasi, Latviya Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Singapurning Tokiodagi elchixonasi, AQShning Sapporodagi Bosh konsulligi, Myanmar Ittifoqi Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Finlyandiyaning Yaponiyadagi elchixonasi, Mo'g'ulistonning Yaponiyadagi elchixonasi, Rossiya Federatsiyasining Sapporo shahridagi Bosh konsulligi, Lyuksemburgning Yaponiyadagi elchixonasi, Kolumbiya Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Taypeyning Yaponiyadagi iqtisodiy va madaniy vakolatxonasi Sapporo filiali, Hokkaydo prefekturasi, Hokkaydo ta'lim kengashi, Milliy o'rta maktab madaniyati uyushmasi, Oliy maktab madaniyat uyushmasi Milliy fotografiya bo'limi, Hokkaydo o'rta maktabi madaniyat uyushmasi, Canon Marketing Japan Inc., Western Digital MCHJ , EIZO korporatsiyasi

【Homiy】 Kinki Nippo aksiyadorlik jamiyati Asahikava filiali, Dai-ichi Life Insurance AJ Asahikava filiali

【Texnik qo'llab-quvvatlovchi】 "Tokio fotosuratlari oyligi" Ijroiya qo'mitasi, HJK AJ

東川オフィシャルパートナー
partnership

【Yuqori sinf xalqaro fotosurat festivali ijroiya qo'mitasi】

Indeks: 071-1426, Hokkaydo, Kamikava-gun, Higashikava-cho, Kita-cho, 1-1-2 TEL:0166-82-2111 FAX:0166-82-5111 URL: https://higashikawa-youth-fest.jp

## Hokkaido, Higashiva - “Fotosuratlar shahri”



Higashikava shahri Hokkaydoning markaziy qismida joylashgan bo`lib, Xalqaro almashinuv va foto san`at orqali, tabiatva madaniyat uyg'unligini mujassam etgan shaharni dunyoga tanitishni maqsad qiligan holda, 1985-yil iyun oyida “Fotosuratlar shahri” deb e`lon qilingan.

## Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivali

2015-yil Hokkaydoning “Fotosuratlar shahri” bo`lgan Higashikava shahri, kelajakda muvozanat va mo`tadillikka ega shaharni maqsad qilib, fotosuratlar san`ati asosida, dunyo xalqlarini birlashtirgan holda, kelajak avlod bo`lgan yuqori sinflarni o`zaro almashinuv orqali do`stlik doirasini kengaytirib, dunyoda tinchlikni yoyishini maqsad qilib festival o’tkazishni boshladi.

Higashikava o`zaro aloqa almashadigan mamlakatlar/mintaqalardan mavzuga muvofiq asarlar (fotosuratlar) kompozitsiyasini e`lon qiladi va har bir mamlakat/mintaqa tomonidan tanlangan maktablar Higashikavaga taklif qilinadi va yuqori sinflar orasida fotosuratlar orqali o’zaro almashinuv hamda do'stlik doirasini kengaytiradi.









**Tanlovda qatnashadigan mamlakat/mintaqalar ro`yxati**

※Tashkilotchi tomonidan ko'rsatilgan shahar/tumangina qatnasha oladi

| Mamlakat | Shahar/viloyat |
|---|---|
| Xitoy xalq respublikasi | Pekin, Xiamen |
| Janubiy Koreya | Yongvol-gun |
| Tayvan | barcha viloyatlar |
| Tayland Qirolligi | |
| Vyetnam Sotsialistik Respublikasi | |
| O‘zbekiston Respublikasi | Toshkent |
| Indoneziya | |
| Avstraliya | |
| Kanada | Kanmor |
| Latviya | Valmiyera tumani |
| Amerika Qo'shma Shtatlari | Nyu-York |
| Myanmar Ittifoqi Respublikasi | Tonti |
| Malayziya | Kuala-Lumpur |
| Singapur Respublikasi | Singapur |
| Finlandiya Respublikasi | Kangasala |
| Mo'g'uliston | Ulan-Bator |
| Rossiya | Aniva shahri |
| Fransiya | |
| Laos | Bienchan |
| Lyuksemburg | |
| Kolumbiya | Boyaka |

※Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari boshqa shahar, viloyat va tumanlardan arizalar qabul qilinmaydi.

※Tanlov shartlari shahar yoki mintaqalarga qarab farqlanishi mumkin, shu sababli to`g`ridan-to`g`ri mahalliy koordinatorlarga murojaat qiling.





## Xalqaro fotosurat festivaliga hujjatlar topshirish xususida

Ａ **Talablar**

○ Yuqori sinflar orasida 3ta o`quvchidan iborat jamoa tuzib, ariza topshirishi kerak (o'quvchilar yoshi Yaponiyadagi yuqori sinflar yoshiga teng bo'lishi kerak, ya'ni 16-19 yoshlar).

・Jamoa rahbari (bitta o'qituvchi) ariza topshirayotgan maktabdan bo'lishi kerak.

・Bitta maktabdan faqat bitta ish/bitta jamoagina taqdim etishi mumkin. Bir nechta ishlar qabul qilinmaydi.

○ Fotosuratlar orqali xalqaro almashinuvga qiziqishi bor yuqori sinflar.

Ｂ Fotosurat mavzusi **[Mintaqaning jozibadorligi]**

Ｃ **Ishni topshirish qoidalari**

1. Fotosuratlar raqamli formatda bo'lishi kerak.
2. Fotosuratlar **biror joyda (ko'rgazma/boshqa tanlovlarda) nashr etilmagan** bo'lishi kerak (saralash bosqichidan o'tgan bo'lishidan qat'iy nazar, fotosuratlar orasida bironta surat nashr etilgan deb topilsa, tashkilotchilar festivalda ishtirokingizni bekor qiladi).
3. Bitta maktabdan faqat bitta jamoa qatnasha oladi. Bitta maktabdan bir nechta jamoa qatnasha olmaydi.
4. 6 ta fotosuratdan iborat bitta ishni topshiring.
5. Fotosurat RGB rejimda, JPEG formatda, o'lchami 1024 pikseldan ko'p bo'lishi va fotosurat tiniqligi 72 pikseldan ko'p bo'lishi kerak.
6. Fotosuratlarni elektron pochta orqali yuboring. Fotosuratlar hajmi katta bo'lsa, onlayn saqlash xizmati (xosting serviz) orqali foydalanishingiz mumkin.
7. Fotosuratlar nomini raqamga o'zgartiring.
8. "Festival ariza shakli" ni to'liq to'ldirilib, maktab direktori imzosi bo'lishi kerak. "Festival ariza shakli" PDF formatda fotosuratlar ishi bilan birga elektron pochta orqali yuboring.
9. Taqdim etilgan ishlar tashkilotchilar tomonidan o'tkaziladigan ko'rgazma, bosma materiallarda chop etilishi va internet saytlarida bepul joylashtirilishi mumkin.

Ｄ Fotosuratlar va hujjatlat topshirishning **oxirgi muddati**:

**2023 yil 18-may (pay.) 17:00 gacha (Yaponiya vaqti)**

E　**Ishlarni topshirish uchun elektron pochta manzili:**

kouryu@town.higashikawa.hokkaido.jp

Koordinatorniki: ●●●●@●●●● (Koordinatorning ismi)

※ Hujjatlarni jo’natishda elektron pochta manzili sarlavhasini “Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivaliga ariza” deb nomlang va hujjatlarni yuqorida ko’rsatilgan tashkilot va koordinatorning elektron pochta manzillariga jo’nating.

※ Tasdiqlash uchun hujjat jo’natgan elektron manzilga javob xati jo’natiladi, shu sababli yuqoridagi pochta manzilini belgilab qo’ying.

F　**Ishlarni baholash tartibi**

Uch nafar hakamlar fotosurat ishlarini baholab, yakuniy qarorni chiqaradi.

※Ba'zi mamlakat/mintaqalarda tanlov koordinatorlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

G　**Tanlov natijalarini e'lon qilish va boshqalar**

(1) Tanlov iyun oyi oxirida o’tkaziladi.

(2) Hakamlar tomonidan tanlab olingan maktablar iyul oyi boshida bosh sahifada e'lon qilinadi va ular to'g'ridan-to'g'ri maktablarga xabar qilinadi. Rasmiy saytni ham kuzatib boring.

(3) Tanlangan maktablarga festival nomi yozilgan jild va tabriknoma yuboriladi.

(4) Tanlangan maktablarning taqdim etilgan ishlari festival davomida namoyish etiladi.

## Xalqaro fotosurat festivalining umumiy tavsifi

A　**Mazmuni**

Har bir mamlakat/mintaqadan tanlangan maktablar (xorijdan tanlangan maktablar + mahalliy maktablar) Hokkaydoning “Fotosuratlar shahri”- Higashikava shahrida yig‘ilib, raqamli kameralarda, Higashikavaning jozibali manzaralari atrofida fotosessiya o'tkaziladi.

Har bir kun uchun suratga olish mavzusi va suratga olish joylari belgilanib, 3 kunlik suratga olish/ fotosurat tanlash/ko'rgazmaga tayyorgarlik ko'riladi. Bitta sarlavha bilan 6 ta fotosurat jamlanmasi yoki 2 ta alohida mavzuli fotosurat ishtirokchi guruhlar tomonidan taqdim etiladi.

*<u>Festival rejasiga oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirilishlar kiritilishi mumkin</u>.

B　**Festival davomiyligi　“ Tadbir o`tkazilish davri”**

2023 yil 21-27-avgust, “Tadbir o`tkazilish davri” 2023-yil 22-26-avgust kunlari

C　**Festival o’tadigan joy**

(1) Higashikava shahri madaniyat almashinuv markazi Sentopyua I

(2) Higashakava shahrining turli ko’zga ko’ringan maskanlari

D　**Jadval (festival rejasi)**

**21-avgust (du.)** ■ Higashikava shahriga kelish

**22-avgust (se.)** ■ Jamoaviy suratga olish (fotosessiya) ■ Ochilish marosimi ■ Yapon tili darsini kuzatish
■ Tanishtiruv ■ (Higashikavaga kelish munosabati bilan) kechki ovqat

**23-avgust (cho.)** ■ Suratga olish ■ Fotosurat tanlash (1) ■Fotosurat ko`rgazmasi

**24-avgust (pay.)** ■ Suratga olish (2) / Fotosuratlar tanlovi (2) / Fotosuratlar ko’rgazmasi (2)

■ “Fotosuratlar orqali do`stlashaylik” ■Hakamlar bilan tanishuv ■ Ovoz berish (1)

**25-avgust (ju.)** ■ Ovoz berish (2) ■ Suratga olish (3) / Fotosuratlar tanlovi (3) / Fotosuratlar ko’rgazmasi (3)

■ “Fotosuratlar orqali do’stlashaylik” ■ Texnikalarni qaytarish (faqat olib turganlarga tegishli)

■ Ovoz berish (3)

**26-avgust (shan.)** ■ Shahar bo’ylab sayohat ■Taqdirlash marosimi/Yakuniy marosim ■ Madaniyat almashinuvi

**27-avgust (yak.)** ■ Festival tugashi (ishtirokchilarning qaytishi)

**E Hakamlar**

Fotosuratlar 2 nafar xorijlik va 5 nafar mahalliy hakamlar tomonidan baholanadi.

**F Festival sovrinlari**

| Festival sovrinlari | Maktab | Ishtirokchi | Sovrin mazmuni |
|---|---|---|---|
| “Fotosuratlar shahri” - Higashikava mukofoti (Oltin mukofot) | 1ta | 1 | faxriy yorliq, mukofot |
| Higashikava sayyohlik uyushmasi mukofoti(Kumush medali) | 1ta | 1 | faxriy yorliq, mukofot |
| Kita kogakuen mukofoti (Bronza medali) | 1ta | 1 | faxriy yorliq, mukofot |
| Maxsus mukofot (Yuqori sovrin) # homiylar tanlagan mukofot | 2ta | - | faxriy yorliq, mukofot |
| “Tomoshabinlar”mukofoti (ishtirokchi, kuratorlar ovoz berishi orqali) | 2ta | 3 | mukofot |
| Maxsus tanlov mukofoti (internet tarmoqlari orqali) | 2ta | 3 | mukofot |

**G Internet tarmoqlari orqali ovoz berish**

Festivalning “Maxsus tanlov mukofoti” sovrini dunyodagi internet tarmoqlaridan to’plangan ovozlar orqali tanlanadi. Ovoz berish quyidagi vaqt jadvali bo`yicha o`tkaziladi:

・**Fotosuratlar uchun ovoz berish vaqti I**:

2023yil 23-avgust (chor.) soat 20:00dan - 26.08 (shanba) soat 12:00gacha (Yaponiya vaqti bilan)

・**Fotosuratlar uchun ovoz berish vaqti II**:

24-avgust(pay.) soat 20:00dan - 26-avgust (shanba) soat 12:00gacha (Yaponiya vaqti bilan)

・**Fotosuratlar uchun ovoz berish vaqti III**:

25-avgust(juma)soat 20:00dan - 26-avgust (shanba) soat 12:00 gacha (Yaponiya vaqti bilan)

**H Festivalda ishtirok etish xarajatlari:**

Festival tashkilotchilari har bir mamlakat/mintaqadagi vakillik maktabidan qatnashayotgan 3 nafar ishtirokchi va 1 nafar mas`ul shaxs (o’qituvchi) uchun yirik Yaponiya borish-kelish ya’ni ikki tomonlama transport xarajatlarini hamda festival davomida turar joy (turar joy va ovqatlanish xarajatlari) ni o‘z zimmasiga oladi

*Har bir mamlakat/mintaqadagi aeroportga boradigan ichki transport va ovqatlanish xarajatlari ishtirokchilar tomonidan qoplashi lozim.

* Festival davomida zarur bo'lgan turar joy xarajatlarinigina tashkilotchi o'z zimmasiga oladi.

**I Qo`shimcha ma`lumotlar**

(1) Yaponiyaga kirish yoki chiqishdan 72 soat oldin PSR test o’tkazilishi lozim deb topilsa, tashkilotchilar ushbu test xarajatlarini o'z zimmasiga oladi. Shu sababli kvitansiyani saqlab qo’ying.

(2) Festival davomida o’tkaziladigan Higashikava shahridagi binolarda Wi-Fi o’rnatilgan, ammo mobil telefondan tashqarida foydalanmoqchi bo'lsangiz, SIM-karta, cho'ntak Wi-Fi va hokazolarni tayyorlab qo’ying.

(3) Higashikava shahri tarjimon xodimlari festival davomida har bir mamlakat / mintaqa maktab ishtirokchilariga hamrohlik qilishadi. Ammo barcha davlat ishtirokchilarning tilida gaplasha oladigan tarjimon xodimlari bilan ta’minlanishi kafolatlanmasligi mumkinligini inobatga olishingizni so’raymiz.

(4) Covid-19 infeksiyasi tufayli Yaponiyada boʻlgan paytingizda niqob taqib, qoʻlingizni dezenfeksiya qilib turing va aholi gavjum joylarda kasallikni yuqtirib olishdan saqlaning.

(5) Festival davomida Covid-19 yuqtirgan bo`lsangiz yoki Covid-19 yuqtirgan kishi bilan suhbatda bo`lgan deb hisoblansangiz, tashkilotchilar koʻrsatmalariga amal qiling.

* Festivalda tanlangan maktab, festivalda ishtirok etish uchun rozilik xatini alohida topshiring.

(6) Festival tashkilotchilari ishtirokchilarni baxtsiz hodisalarda sug'urta qilishni zimmasida oladi, lekin Covid-19 bilan kasallanganligi sababli, Yaponiyada qolish muddatini uzaytirish va qaytish parvoz kunini o'zgartirish bilan bog'liq xarajatlar sug'urta hajmidan oshib ketsa, ishtirokchi tomonidan qoplanadi.







HIGASHIKAWA 高校生国際交流写真フェスティバル

# Yuqori sinflar xalqaro fotosurat festivali ariza shakli

HIGASHIKAWA HOKKAIDO JAPAN — THE TOWN OF PHOTOGRAPHY —

| | | |
|---|---|---|
| Maktab nomi | (ona tilida)<br>(ingliz tilida) | |
| Maktab direktori (ism-familiya, (imzo) | | Ushbu maktab nomidan festivalga qatnashishiga<br>□roziman □rozi emasman<br>※□ichini bo`yang。 |
| Maktab manzili | Pochta indeksi:<br>tel：（ ） —<br>fax：（ ） —<br>Elektron pochta： @ | |

Maktab direktori to`ldiradigan qism

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| O'qituvchi<br>(Erkak・Ayol)<br>※tegishli qismniObilan belgilang. | To`liq ismi | (ona tilida)<br>(ingliz tilida) | | |
| | o`lcham (futbolka) | □S □M □L<br>□LL □boshqa（ ） | Oziq-ovqatga allergik holat | |
| | e-mail | @ | | |
| 1-o'quvchi ( -sinf)<br>(Erkak・Ayol)<br>※tegishli qismniObilan belgilang. | To`liq ismi | (ona tilida)<br>(ingliz tilida) | | |
| | o`lcham (futbolka) | □S □M □L<br>□LL □boshqa（ ） | Oziq-ovqatga allergik holat | |
| | Kotibiyatga tegishli uskunadan foydalanish istagi | bor ・ yo`q<br>※ikkisidan birini tanlab, O bilan belgilang.<br>※ "Yo`q" ni tanlaganlar, o`ng taraftagi qismni to`ldiring. | Shaxsiy ma`lumotlar ishlatiladigan buyumlar | □fotokamera（ ）<br>□media（ ）<br>□cardreader（ ） |
| 2-o`quvchi ( -sinf)<br>(Erkak・Ayol)<br>※tegishli qismniObilan belgilang. | To`liq ismi | (ona tilida)<br>(ingliz tilida) | | |
| | o`lcham (futbolka) | □S □M □L<br>□LL □boshqa（ ） | Oziq-ovqatga allergik holat | |
| | Kotibiyatga tegishli uskunadan foydalanish istagi | bor ・ yo`q<br>※ikkisidan birini tanlab, O bilan belgilang.<br>※ "Yo`q" ni tanlaganlar, o`ng taraftagi qismni to`ldiring. | Shaxsiy ishlatiladigan buyumlar | □kamera（ ）<br>□media（ ）<br>□cardreader（ ） |
| 3-o'quvchi ( sinf)<br>(Erkak・Ayol)<br>※tegishli qismniObilan belgilang. | To`liq ismi | (ona tilida)<br>(ingliz tilida) | | |
| | o`lcham (futbolka) | □S □M □L<br>□LL □boshqa（ ） | Oziq-ovqatga allergik holat | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Kotibiyatga tegishli uskunadan foydalanish istagi | bor ・ yo`q<br>※ikkisidan birini tanlab, ○ bilan belgilang.<br>※ "Yo`q" ni tanlaganlar, o`ng taraftagi qismni to`ldiring. | Shaxsiy ishlatiladigan buyumlar | □kamera（ ）<br>□media（ ）<br>□cardreader（ ） |



| | |
|---|---|
| Ish (fotosuratlar) sarlavhasi | (ona tilida)<br><br>(ingliz tilida) |
| Fotosuratlar soni | 6ta ※[Mintaqaninig jozibadorligi] mavzusidagi guruh fotosurati |
| Fotosuratlar turi | 1:oq-qora 2:rangli 3:aralash *orasidan birini tanlab ○ bilan belgilang. |

**Qo'shimcha ma'lumot:** "Ish tavsifi yoki har bir fotosuratlar uchun nom (sarlavha yoki izoh) berish uchun ushbu ustunni to'ldiring".

※１. Barcha bandlarni to`liq to`ldiring.
※２. Maktab direktorining imzosi bo`lishi lozim. Maktab direktori mzosi qo`yilmagan ariza shakli qabul qilinmaydi. Qatnashish roziligi bildirilgan katakchani to`ldirishni unutmang.
※３. Tanlovda g`olib topilgan maktab vakillariga futbolka taqdim etiladi, shu sababli o`lchamni aniq ko`rsatishingiz so`raymiz.
※４. Shaxsiy ma`lumotlar faqat festival bo`yicha siz bilan bog`lanish uchun foydalaniladi, Ma`lumotlar egasining ruxsatisiz uchinchi shaxsga berilmaydi.
※５ Shaxsiy texnik buyum bandini belgilab ko'rsatmagan vakillar, kotibiyat festival davomida foydalanishingiz uchun fotokameralarni tayyorlab beradi.
※６ Oziq-ovqat bo`yicha allergic holatingiz bo`lsa erkin yozing.
Ushbu asosda festival paytida taomnoma tarkibi ko`rib chiqiladi.
※７ Mas'ul shaxs (o'qituvchi), 1,2,3-o`quvchi bandiga festivalda qatnasha oladigan kishilarni kiriting.

| Davlat | Shahar/tuman | Kirish raqami |
|---|---|---|
| | | |

*** Bu qismni to'ldirmang.**